

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.48:339.138 (575.1)

OLIMOVA SURAYYO ABDUVOXOB QIZI

**O‘ZBEKISTON TURIZMINI XALQARO BOZORGA OLIB CHIQISHNING
MARKETING STRATEGIYALARI**

71010401– “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”
mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD. Sa’dullayeva G

Magistrlik dissertatsiya ishi “Turizm va servis” kafedrası dastlabki himoyadan o‘tgan.

11 -sonli bayonnoma “ 19 ” 04 _____ 2023y


Kafedra mudiri: I.A. Axmedov


imzo

08.05.2023 u.

sana


Ilmiy rahbar: Sa’dullayeva G


imzo

5.05.23

sana

Talaba: Olimova S.A


imzo

5.05.23

sana

dissertatsiya Magistratura bo‘limi 202_ yil “ 20 ” dekabr

№ 808-T raqami bilan ro‘yxatga olingan

Annotatsiya

Ushbu dissertatsiyada O‘zbekiston turizmini xalqaro bozorga olib chiqishning marketing strategiyalari va ularning bugungi kunda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga ta’siri qay darajada ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bilamizki, keyingi yillarda O‘zbekistonda rivojlanib borayotgan boshqa sohalar kabi turizmning rivojlanishida ham marketing asosiy o‘rinni egallab qolmoqda. Ayniqsa, pandemiya davridan keyin onlayn marketing ancha taraqqiy etganini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qancha qonun va qarorlarni, ilmiy izlanishlarni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Va albatta, bu borada qabul qilingan choralar kata natijalar berishni boshladi. 2022-yilda tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravarga ortganini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: turizm, marketing, tashqi savdo, tashqi turizm, marketing tadqiqotlari, turizm xizmatlari.

SUMMARY

In this dissertation, the marketing strategies of bringing Uzbekistan's tourism to the international market and their influence on the development of tourism in our country today are scientifically substantiated. We know that in recent years, marketing occupies the main place in the development of tourism, as well as other sectors that are developing in Uzbekistan. Especially after the pandemic period, we can see that online marketing has improved a lot. Today, we can witness a number of laws and decisions aimed at increasing the tourism potential of Uzbekistan, as well as scientific research. And of course, the measures taken in this regard began to produce results. We can see that the number of foreign tourists visiting in 2022 has tripled compared to 2021.

Keywords: tourism, marketing, foreign trade, foreign tourism, marketing research, tourism services.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	5
Keltirilgan qisqartmalar.....	5
KIRISH.....	6
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	9
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	10
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	10
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi..	14
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	
II BOB. METODOLOGIYA.....	22
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	22
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	22
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	23
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	24
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	25
3.1. O'zbekistonda turizmning rivojlanish imkoniyatlarini ochishda marketing strategiyasining ahamiyati.....	25
3.2. Xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning o'rni.....	34
3.3. O'zbekiston turizm bozorida xalqaro hamkorliklar.....	45
3.4. O'zbekiston turizmini rivojlantirish uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish	63
3.5. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	
XULOSA.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70
Ilovalar.....	72

KIRISH

O‘zbekistonda turizmning milliy va zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, uning samaradorligi va raqobardoshligini ta‘minlash asosida ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish Respublika iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur sohaning modernizatsiyalashuvi va mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvi shunday darajada bo‘lishi zarurki, u milliy iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, xorijiy valyuta tushumlarini oshirish, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylay va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlamog‘i zarur.

Respublikamiz turizm industriyasining oxirgi yillardagi rivojlanish tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonning boy tabiiy va madaniy merosi hamda milliy salohiyatidan to‘la foydalangan holda uning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, tarmoq korxonalarining raqobardoshligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda Respublikamizning yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushi uch foizni tashkil etadi.¹

Iqtisodiy tushuncha yoki zamonaviy biznes falsafasi sifatida marketing, bir tomondan, iste‘molchilarning ehtiyojlari, didlari va afzalliklarini puxta, har tomonlama va tizimli o‘rganishni, ishlab chiqarishni ularga yo‘naltirishni, ishlab chiqarishni ta‘minlashni o‘z ichiga oladi.

Tovar, kapital, ishchi kuchi bozorlari bilan bir qatorda mavjud va xizmatlarning keng bozori ular bilan o‘zaro ta‘sir qiladi. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng istiqbolli, jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 70 foizdan oshadi. Shu bilan birga, bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lganlar sonining o‘sishi kuzatilmoqda.

Ushbu soha jadal rivojlanib, uning roli kuchayganiga qaramay iqtisodiyotda “xizmatlar” tushunchasining umumiy qabul qilingan ta‘rifi hali ishlab chiqilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizm ham, boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari kabi, ixtisoslashgan xo‘jaliklar qatoriga kirib, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyot restrukturizatsiyasi bozorni

¹ www.stat.uz